"UzautoComponents" MChJ ning
2024 y. "19" 09 dagi
07 - 026 -sonli Burug'iga
1-ilova

"UzautoComponents" MChJning XODIMLARNI TANLASH VA ISHGA QABUL QILISH TO'G'RISIDAGI NIZOMI

MUNDARIJA

№	Bo‘lim va kichik bo‘limning nomi	Sahifa
1	Atamalar va ta’riflar	3
2	Umumiy Qoidalar	4
3	Me’yoriy manbalar	4-5
4	Tanlov jarayoni haqida umumiy tushuncha	5
5	Tanlov e’lon qilish turlari va nomzodlarni tanlash jarayonlari	5-6
6	Javobgarlik va vakolatlar	6
7	Nizom va unga aloqador hujjatlar nazorati va saqlanishi	7-8
8	Javobgarlik va vakolatlar	9
9	Nizom va unga aloqador hujjatlarni nazorati va saqlanisi	10

1. ATAMALAR VA TA'RIFLAR

Atamalar	Ta'riflar
Korxona	"UzautoComponents" MChJ
Tarkibiy tarmoq	Boshqarma/direksiya/bo'lim/xizmat/bo'linma
Nomzod	Jamiyatdagi bo'sh ish o'rni (vakant) bo'lgan muayyan ish o'rinni (lavozimni) egallash uchun tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan shaxs
HR mas'ul xodimi	Xodimlar bilan ishlash va ma'muriyat bo'limi xodimi
Uzautojobs.uz, www.hh.uz (headhunter process), https://www.linkedin.com	Bo'sh ish o'rinlari bo'yicha e'lonlar joylash yoki bo'sh ish o'rinlari va nomzodlar haqida ma'lumot olish uchun mo'ljallangan recruiting saytlar. Ulardan Jamiyatga kerakli bo'lgan mutaxassislarni izlash uchun foydalaniladi
Screening (HR mas'ul xodim suhbati)	Bo'sh ish o'rniga ariza yuborgan nomzodlar rezyumesidagi ma'lumotlari lavozim talablariga muvofiq yoki nomuvofiqligi bo'yicha HR mas'ul xodimi tomonidan nomzod bilan telefon orqali suhbat o'tkazish jarayoni
MBX	Ma'muriy boshqaruv xodimlari
EXA tizimi	Elektron hujjatlar aylanmasi tizimi
Job Offer	Doimiy tanlov komissiya suhbatidan ijobiybaholangan nomzodlarga taqdim qilinadiganishga taklifnoma
Recruiter	Recruiter bu Jamiyat yoki tashkilotlardagi bo'shish o'rinlari bo'yicha e'lon berish va Jamiyatga zarur bo'lgan mutaxassislar bilan ta'minlovchi mutaxassis xodim.

2. UMUMIY QOIDALAR

2.1. Xodimlarni tanlash va ishga qabul qilish to‘grisidagi nizomi (keyingi o‘rinlarda “Nizom”) “UzautoComponents” MChJ (keyingi o‘rinlarda – “Jamiyat”)dagi boshqarma/bo‘limlardagi bo‘sh ish o‘rinlari bo‘yicha tanlov e’lon qilish, bo‘sh ish o‘rinlarga ariza yuborgan nomzodlarni saralash, saralangan nomzodlarni ishga qabul qilish jarayonlarini tushuntirish va tartibga solishdan iborat.

2.2. Mazkur Nizom Jamiyatda nomzodlarni bo‘sh ish o‘rinlariga tanlash talablarini va qoidalarini belgilab beradi.

2.3. Ushbu Nizomning asosiy vazifasi - Jamiyat oldida turgan maqsad va vazifalarini bajarish uchun kerakli malakali xodimlar bilan o‘z vaqtida ta’minlashdan iborat.

2.4. Nizom imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi. Nizomga uning amal qilish muddati davomida zarur o‘zgartirish va qo‘shimchalar u tasdiqlangan tartibda kiritilishi mumkin.

2.5. Ushbu Nizom Jamiyatning Bosh direktori, uning o‘rinbosarlari, direktorlar, ichki audit xizmati, komplayens xizmati, xavfsizlik xizmati boshlig‘i, axborot xavfsizligi xizmati boshlig‘i lavozimlariga tayinlash jarayonida tadbiq qilinmaydi. Ushbu jarayonlar Jamiyatda o‘rnatilgan tartib bo‘yicha amalga oshiriladi.

3. ME’YORIY MANBALAR

Ushbu nizomda quyidagi normativ hujjatlar va internet manbalardan foydalanilgan:

3.1. O‘zbekiston Respublikasi mehnat kodeksi;

3.2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.11.2023y. kungi PF- 200-sonli Farmoni;

3.3. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni Qisqartirish va Bandlik Vazirligining “Ishga qabul qilish chog‘ida tanlov o‘tkazish to‘g‘risida”gi namunaviy nizomi;

3.4. Tarkibiy bo‘linmalar to‘g‘risidagi nizom, lavozim yo‘riqnomasi va malaka talablarini ishlab chiqish va boshqarish talablari;

3.5. “UzautoComponents” MChJda manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha Nizomi;

3.6. Kompaniyaning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tasdiqlangan ichki me’yoriy hujjatlar.

4. TANLOV JARAYONI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

4.1. Boshqarma va bo'lim tomonidan mavjud vakansiyani to'ldirish maqsadida Jamiyat bosh direktori nomiga EXA orqali xizmat xati chiqariladi, xizmat xatida buyurtmachi boshqarma va bo'lim rahbarlari tomonidan ko'rsatilgan bo'sh ish o'rnining lavozim talablari tasdiqlangan ko'rinishida taqdim qilinadi.(1-ilova)

4.2. Yangi shtat birligi ochish bo'yicha buyurtmachi boshqarma/bo'lim Jamiyat bosh direktor nomiga asoslari keltirilgan holda so'rov xati yuboradi.

4.3. Boshqarma, bo'limlardagi mavjud bo'sh shtatlarni to'ldirish uchun, Xodimlar bilan ishlash va ma'muriyat bo'limi tomonidan xizmat xatida ko'rsatilgan mavjud bo'sh ish o'rni va yangi shtat birliklarini ochish bo'yicha tahlil olib boradi.

5. TANLOV E'LON QILISH TURLARI VA TANLOV JARAYONLARI

5.1. Xodimlar bilan ishlash va ma'muriyat bo'limi tanlov o'tkazishni tashkillashtiradi, tanlov O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.11.2023y. kungi PF-200-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni Qisqartirish va Bandlik Vazirining 2023-yil, 14-avgust sanasidagi QMMB 10/23/3451/0593 sonli buyrug'iga asosan nomzodlarning tanlov jarayonini to'liq va haqqoniy baholashni ta'minlash uchun doimiy tanlov komissiyasi tashkil etiladi. Ushbu buyruqning 2-bob 4-5-6-bandlariga ko'ra Jamiyatda doimiy tanlov komissiyasi shakllantiriladi.

Doimiy tanlov komissiyasi quyidagi tarkibdan iborat:

- Xodimlar bilan ishlash va ma'muriyat bo'lim boshligi - Komissiya Raisi;
- Bo'sh vakansiyasi bo'lgan boshqarma/bo'lim boshlig'i - Komissiya a'zosi (Buyurtmachi);
- Komplayens xizmati xodimi - Komissiya a'zosi;
- Holis sifatida bo'sh ish e'lon qilgan boshqarma/bo'limga aloqador bo'lmagan uchinchi tomondan xodim - Komissiya a'zosi;
- Xodimlarni bilan ishlash va ma'muriyat bo'lim mutaxassisi - Komissiya a'zosi (2-Ilova).

Tanlov komissiyasi, uning a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi. Tanlov komissiyasining qarori oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi va majlisda ishtirok etgan barcha a'zolar tomonidan tasdiqlanadigan bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.Berilgan ovozlar soni teng bo'lib qolgan taqdirda, Tanlov komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

5.2. Tanlov vaqtida ishtirok etayotgan nomzodlar tanlov komissiya a'zolari ichida qarindosh urug'chiligi aniqlangan taqdirda tanlov to'xtatilib, ushbu ma'lumotni avvaldan tanlov komissiya raisiga hamda komplayens xizmatiga yozma axborot berishi zarur.

Tanlov jarayonlarida ishtirokchilar, nomzodlar yoki boshqa shaxslar tomonidan pul va boshqa boyliklar taklif qilish holatlari yuz bergan hollarda zudlik bilan qonunchilik talablari tushuntirilishi hamda o‘z vaqtida bu haqida tanlov komissiya raisiga hamda komplayens xizmatiga xabar berilishi zarur.

6. TANLOV E’LON QILISH TURLARI

6.1. Ichki tanlov turi: Bo‘sh ish o‘rnini to‘ldirishda birinchi navbatda Jamiyat ichki resurslaridan foydalaniladi, bo‘sh ish o‘rni uchun tanlov Jamiyatdagi barcha boshqarma va bo‘limlarga elektron pochta va barcha axborot oynalariga e’lon berish yo‘li orqali amalga oshiriladi.

6.2. Tashqi tanlov turi: Jamiyatdagi bo‘sh ish o‘rinlari haqida e’lonlar Jamiyatning https://www.uzautojobs.uz sayti orqali amalga oshiriladi (zaruriy hollarda ommaviy axborot vositalari: gazetalar, jurnallar yoki boshqa ijtimoiy tarmoqlar orqali: www.hh.uz, https://www.linkedin.com va boshqa saytlardan foydalanilgan holda amalga oshiriladi). E’lonlar kamida uch kun va eng uzog‘i bilan bir oy muddatga joylashtiriladi.

A. Tanlov to‘g‘risidagi **ishchi-xodim** lavozimlari uchun e’lon quyidagilarni o‘z ichiga oladi.

E’londa nomzod uchun qo‘yiladigan talablar:

- Yoshi;
- Ma’lumoti;
- Mutaxassisligi;
- Ish tajribasi;
- Jismonan sog‘lomligi;
- Lavozimdan kelib chiqqan holda qo‘shimcha talablar belgilanishi mumkin.

B. Tanlov to‘g‘risidagi **muhadis texnik xodim, mutaxassis, bo‘lim boshlig‘i** lavozimlari uchun e’lon quyidagilarni o‘z ichiga oladi.

E’londa nomzod uchun qo‘yiladigan talablar:

- Yoshi;
- Ma’lumoti;
- Mutaxassisligi;
- Ish tajribasi;
- Chet tillarini bilish talablari;
- Kompyuter savodhonligi;

Soha mutaxassisligidan kelib chiqqan holda qo‘shimcha talablar belgilanishi mumkin.

7. NOMZODLARNI TANLASH JARAYONLARI

7.1.Tanlov jarayonlari quyidagi bosqichlardan iborat:

7.1.1. 1-bosqich - Tizimida saralash:

Jamiyatning recruiting https://www.uzautojobs.uz (Uzautojobs.uz, www.hh.uz

(headhunter process), https://www.linkedin.com) sayti tomonidan e'lon qilingan lavozim talablariga asosan avtomatik tarzda nomzodlar ro'yxati shakllantiriladi.

7.1.2. 2-bosqich - Screening (HR mas'ul xodimi suhbati):

Ushbu bosqichda HR mas'ul xodimi nomzod bilan telefon orqali lavozim talablari bo'yicha suhbat o'tkazadi, suhbat jarayonida rezyumesiga joylashtirgan ma'lumotlari to'g'ri yoki noto'g'riligini suhbat davomida tekshiradi. Saralangan nomzodlar tanlovning keyingi 3-bosqichiga SMSxabarnoma orqali taklif qilinadi.

7.1.3. 3-bosqich - Mutaxassis suhbati:

Ushbu bosqichda video konferens (ZOOM yoki boshqa platforma) aloqasi orqali amalga oshiriladi, agarda nomzod mutaxassis bilan video konferens aloqasi orqali suhbatlashishga imkoni bo'lmagan taqdirda Jamiyatga taklif qilinib buyurtmachi boshqarma/bo'lim mutaxassislari, xodimlar bilan ishlash va ma'muriyat bo'limi mutaxassisi va komplayens xizmati mas'ul xodimi (ZOOM orqali) ishtirokida suhbat o'tkaziladi. Tanlovning ushbu bosqichi o'tkazilishi to'g'risida Doimiy tanlov komissiyasi xodimlar bilan ishllash va ma'muriyat bo'limi mas'ul xodimi tomonidan xabardor qilinib, nazorat uchun Doimiy tanlov komissiyasi vakillari ishtirok etishlari mumkin. Mutaxassislar suhbat davomida nomzodni soha bo'yicha bilimlari, mutaxassisligi, ish tajribasi, mehnat faoliyatidagi erishgan yutuqlari va ish rejalari, zaruriy hollarda lavozim talablaridan kelib chiqqan holda chet tillarini o'zlashtirganligi, kompyuter savodxonligi va lavozimga bog'liq bo'lgan boshqa bilimlarini tekshiradi. Mutaxassislar tomonidan o'tkazilgan suhbat bo'yicha mas'ul xodimga suhbat natijalari taqdim qilinadi va ijobiy baholangan nomzodlar saralanadi (3-ilova). Saralangan nomzodlar tanlovning keyingi 4-bosqichiga SMS xabarnoma orqali taklif qilinadi.

7.1.4. 4-bosqich - Doimiy tanlov komissiya suhbati:

Ushbu bosqichda taklif qilingan nomzodlar doimiy tanlov komissiya suhbatiga kirishdan oldin Jamiyatning ichki me'yoriy hujjatlariga asosan ''Manfaatlar to'qnashuvi varag'i''ni to'ldiradi. Suhbat jarayonida tanlov komissiya a'zolari o'zining yo'nalishlari bo'yicha nomzod bilan suhbat o'tkazib, o'zining qarorini beradi. Bunda har bir komissiya a'zosining xulosasi o'z o'rniga ega bo'lib, tanlov komissiya kotibi tomonidan xulosalar jamlanadi. Eng ko'p ijobiy xulosa olgan nomzod, eng munosib deb topilib, unga **(Job offer)** ish taklif qilinadi. (4-ilova)

Suhbat tafsiloti bo'yicha nomzodlarning natijalari kiritilgan holda bayonnoma rasmiylashtiriladi va EXA tizimi orqali tanlov komissiya raisi va a'zolaridan imzolar yig'iladi.

Doimiy tanlov komissiyasi suhbat bosqichida qatnashib lekin Job offer taqdim qilinmagan nomzodlar zaxirasi bo'yicha ro'yxat shakllantirilib, "O'zavtosanoat" AJ tizimiga kiruvchi Jamiyatlarning so'roviga ko'ra ular bo'yicha ma'lumot taqdim etilishi mumkin. Saralangan nomzodlar tanlovning keyingi 5-bosqichiga SMS xabarnoma orqali taklif qilinadi.

7.1.5. 5-bosqich - Hujjatlarni rasmiylashtirish:

Ushbu bosqichda tibbiy ko'rikdan ijobiy (sog'lom) xulosa olgan nomzodlarga O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida taqdim qilishi shart deb belgilangan hamda Jamiyat tomonidan nomzodning boshqa qo'shimcha zaruriy hujjatlarini taqdim qilishi so'raladi (5-ilova).

7.1.6. Ayrim hollarda:

Yuqori turuvchi davlat idoralari, "O'zavtosanoat" AJ rahbariyati yoki Jamiyat rahbari tomonidan, Jamiyat rivoji uchun tor doiradagi mutaxassislar nomzodi, rahbarlik lavozimlariga tavsiya qilingan nomzodlar Komplyens xizmati ijobiy xulosasiga ko'ra Doimiy tanlov komissiyasi suhbatiga qo'yiladi. Ayrim holatlarda nomzod kasblar klassifikatori (lavozim yo'riqnomasi)da belgilangan talablarga muvofiq kelmasada, lekin nomzod yuqorida keltirib o'tilgan sifatlarga ega bo'lgan taqdirda Doimiy tanlov komissiyasining ijobiy xulosasiga ko'ra ishga qabul qilinishi mumkin.

7.2. Tanlov tadbirlari o'tkazilayotgan xonaga nomzodlar tomonidan mobil aloqa vositasi, kompyuter yoki boshqa aloqa va telekommunikatsiya vositalari, kitob, lug'at, shpargalka va boshqa materiallar olib kirish hamda foydalanish, shuningdek boshqa nomzodlar bilan suhbatlashish taqiqlanadi.

Bunda, ushbu taqiqlangan materiallarni olib kirgan yoki foydalangan, shuningdek tanlov tadbirlari vaqtida boshqa nomzodlar bilan suhbatlashgan nomzod tanlov tadbirlarini o'tkazish tartibini buzgan deb hisoblanadi hamda dalolatnoma asosida tanlov tadbirlaridan chetlashtiriladi.

Tanlov tadbirlarini o'tkazish vaqtida nomzodning natijalari (tanlov natijalari) ballik tizimda baholanadi.

1 ta ish o'rniga talabgor nomzodlar soni 5 nafar va undan ko'p bo'lganda tanlov tadbirlari test sinovlari bo'yicha o'tkazilishi mumkin, test sinovlari o'tkazilganda nomzodlarning natijalari 100 ballik tizimda baholanadi. Bunda, test savollari 50 tani va har bir to'g'ri javob 2 ballni tashkil qiladi. Nomzod tomonidan to'plangan ballar yig'indisi 70 ball va undan yuqori ball to'plaganda nomzodlar komissiya suhbati jarayoniga qo'yiladi.

Tanlov tadbirlari faqat suhbat shaklida o'tkazilgan taqdirda nomzodning natijalari 5 ballik tizimda baholanadi. Bunda, Tanlov komissiyaning har bir a'zosi nomzodni quyidagi mezonlarga asosan baholaydi:

berilgan savollarga to'liq va aniq javob berishi, faoliyat sohasi bilan bog'liq tizimli bilimlarga ega bo'lishi, ulardan o'z kasb faoliyatida mustaqil foydalanishni bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni
mustaqil tahlil qila olishi – 5 ball;

berilgan savollarga aniq, biroq to'liq javob berolmasligi, faoliyat sohasi bilan bog'liq bilimlarga ega bo'lishi, ulardan o'z kasb faoliyatida foydalanishni bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni tahlil qila olishi – 4 ball;

berilgan savollarga to'liq javob berolmasligi, faoliyat sohasi bilan bog'liq bilimlarga yetarli darajada ega bo'lishi, ulardan o'z kasb faoliyatida foydalanishni bilishi – 3 ball;

berilgan savollarga noaniq javob berishi, faoliyat sohasi bilan bog'liq bilimlarga ega bo'lishi, ulardan o'z kasb faoliyatida foydalanishni bilmasligi – 2 ball;

berilgan savollarga noaniq javob berishi, faoliyat sohasi bilan bog‘liq bilimlarga yetarli darajada ega emasligi – 1 ball;

berilgan savollarga umuman javob bera olmasligi – 0 ball.

Nomzod tomonidan umimiy 4 va undan yuqori ball to‘planganda tanlovdan o‘tgan deb hisoblanadi.

Nomzod umumiy 3 ball bilan baholansa tanlov komissiyasining qo‘shimcha qaroriga asosan tanlovdan o‘tgan deb baholanishi mumkin.

Nomzod 0 dan 2 ballgacha (2 ham kiradi) baholansa tanlovdan o‘tmagan deb hisoblanadi.

8. JAVOBGARLIK VA VAKOLATLAR

Boshqarma va bo‘limlar	**Tegishli javobgarlik va vakolatlar**
Doimiy tanlov komissiya a’zolari	Suhbat jarayonlarini shaffof o‘tkazilishi va yakuniy qarorni haqqoniy qabul qilinishi bo‘yicha javobgar.
Xodimlar bilan ishlash va ma’muriyat bo’lim xodimi	Nizom ishlab chiqish, tekshirish rejasini tuzish va bajarilishini ta’minlash; Ishlab chiqilayotgan nizomni tegishli bo‘limlar bilan o‘zaro kelishishni ta’minlash; Foydalanuvchilarni o‘qitish va xodimlarni o‘rnatilgan tartib qoidalariga rioya qilishini nazorat qilish va ta’minlash; Nizom tekshirish dalolatnomalarini va nizomga kiritilgan o‘zgarishlar ijrosini o‘zaro bog‘liq bo‘limlar bilan kelishadi.
Buyurtmachi boshqarma/bo‘lim soha mutaxassislari	Belgilangan tartib bo‘yicha xizmat xat yuborish; Suhbat jarayoniga taklif qilingan nomzodlar orasida soha mutaxassisiga aloqador shaxs bo‘lgan taqdirda,soha mutaxassisi bu haqida komissiya a’zolarini xabardor qiladi.

9. NIZOM VA UNGA ALOQADOR HUJJATLARNI NAZORATI VA SAQLANISHI

Yozuvning nomi	Nazorat qilyvchi bo'lim	Nazorat uchun mas'ul shaxs	Saqlash muddati(yil)			Saqlash joyi
			Jami	Bo'lim	Arxiv	
Ishga qabul qilish uchun EXA tizimi orqali bo'sh ish o'rnini to'ldirish uchun yozilgan xizmat xati	Xodimlarni bilan ishlash va ma'muriyat bo'limi	Xodimlarni bilan ishlash va ma'muriyat bo'lim mutaxassisi hamda bo'lim boshlig'i	1	1	-	Xodimlarni bilan ishlash va ma'muriyat bo'limi
Test, sport amaliy bosqich va assessment sinov natijalari kiritilgan baholash varag'i	Xodimlarni bilan ishlash va ma'muriyat bo'limi	Xodimlarni bilan ishlash va ma'muriyat bo'lim mutaxassisi hamda bo'lim boshlig'i	1	1	-	Xodimlarni bilan ishlash va ma'muriyat bo'limi
Test, sport amaliy bosqich va assessment imtihon jarayonlari video foto lavhalari	Xodimlarni bilan ishlash va ma'muriyat bo'limi	Xodimlarni bilan ishlash va ma'muriyat bo'lim mutaxassisi hamda bo'lim boshlig'i	2	2	-	Xodimlarni bilan ishlash va ma'muriyat bo'limi va Axborot texnologiyalari boshqarmasi tomonidan serverdan ajratilgan joy